

5. Yormonqulova, N. I. (2024). *Yashil iqtisodiyotga o'tishning ahamiyati va O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi*. Qo'qon Universiteti Xabarnomasi, 11, 44–47. <https://doi.org/10.54613/ku.v11i11.951>

YASHIL INVESTITSİYALARNING GLOBAL TENDENTSIYALARI, ULARNI O‘ZBELKISTONDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI

Turdimuxammadov Lazizbek Oybek o‘g‘li³⁷

ANNOTATSIYA. So‘nggi yillarda butun dunyo bo‘ylab juda ko‘p miqdordagi ekologik muamolar kuchayib, iqlim o‘zgarishlari, resurslarning kamayib borishi va atrof-muhitga zarar yetkazuvchi faoliyatlar jiddiy muammolarga sabab bo‘lmoqda. Dunyo rivojlanib borgan sari uning yomon taraflari ham ko‘payib bormoqda, ushbu holatlar barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlarni yaratishni va innovatsion yondashuvlarni talab qilmoqda. Shunday yondashuvlardan biri bu “yashil investitsiyalar” tushunchasidir. Yashil investitsiya – bu atrof- muhitga zarar yetkazmaydigan, balki uni asrashga qaratilgan va uning faoliyatiga yo‘naltirilgan sarmoyalardir. Bu investitsiya iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash bilan birga ekologik barqarorlikni saqlashga ham xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Yashil investitsiyalar, ekologik barqarorlik, qayta tiklanuvchi energiya, global tendentsiyalar, O‘zbekiston imkoniyatlari,

Kirish

Hozirgi davrda ko‘plab davlatlar iqtisodiy o‘shishnigina asosiy maqsad qilib qo‘yishgan, bularning ortidan qanday talofatlar qolishini e‘tiborga olishgani yo‘q. To‘g‘ri bularning orqasidan infratuzilmalarni rivojlantirish, satoatni kengaytirish, eksport va importni oshirish kabi yutuqlarga olib keladi, ammo bularning ortidan atrof-muhit yomonlashishi kelib chiqadi. Ekologik tomonlar e‘tiborsiz qoldirilganda, nafaqat tabiat, balki insonlarning salomatligi va jamiyatning barqarorligiga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi. Bunday rivojlanishlarning ortidan havo va suvning ifloslanishi, yer resurslarining degradatsiyasi, biologik xilma-xillikning kamayishi kabi muammolarga yuzaga kelmoqda. Avvalo, ekologik omillarni e‘tiborsiz qoldirish natijasida havo, suv va tuproq ifloslanishi ortmoqda, yirik sanoat shaharlarida havodagi zararli moddalarning ko‘payishi inson salomatligiga ham bevosita ta‘sir qilmoqda. Masalan, o‘zimizning Toshkent shahri misolida olib qaraganda, hozirgi shaharimizda iqtisodiy o‘shish yuzida yangidan – yangi imoratlar qurilishi va transportlarning soni keskin tarzda oshib ketishi natijasida havodagi PM2.5 zarrachalari Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti hamma uchun tavsiya qilgan

³⁷ Jahon iqtisodiyot va diplomatiya universiteti, xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti talabasi, lturdimuhammedov@gmail.com

me'yordan o'nlab barobarga oshib ketgan. Buning natijasida insonlarda har xil turdagi o'pka kasalliklari yurak – qon tomir muamolarini keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, ekologik muammolar faqat insonlar uchun emas, balki butun tirik tabiat, hayvon va o'simliklar dunyosi uchun ham xavf tug'diradi, ko'plab hayvon turlarining yo'qolib ketishi tabiiy muhitga jiddiy xavflarni keltirib chiqarmoqda. Iqtisodiy maqsadlarda o'rmonlarning kesilishi, yer osti va usti suvlar ifloslanishi oziq – ovqat zanjiriga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shunday avj olayotgan muammolarga yashil investitsiya yordam beradi [2].

Adabiyotlar tahlili

So'nggi yillarda global miqyosda iqtisodiy o'sishni tezlashtirishga qaratilgan harakatlar ko'paymoqda, bu o'sish ko'pincha ekologik muvozanatni hisobga olmasdan amalga oshirilmoqda. Jahon bankining 2023-yildagi “Green Investments Report” hisoboti ushbu muammoning dolzarbligiga yana bir bor tasdiqlaydi. [1]. Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining “Green Transition Strategy“ hujjati esa moliyaviy institutlarning ekologik loyihalarini qo'llab – quvvatlashdagi ro'li ham yashil obligatsiyalar bozorining shakllanishini chuqur tahlil qilgan. Hozirgi kunda dunyo o'zgarishlar davrini boshidan kechirmoqda. Iqlim o'zgarishi, tabiiy ofatlar, resurslarning kamayib borishi kabi muamolar hammamizni qayg'uga solmoqda. Aynan shu sharoitda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi tashkilotlar yangi, barqaror kelajakni qurish uchun ishonchli yo'l ko'rsatmoqda [2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-iyundagi PQ-186-son qarorida esa yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha milliy strategik yo'nalishlar aniq belgilangan. Bu qaror orqali qabul qilingan davlat dasturlari yashil investitsiyalarni jalb etish uchun normativ-huquqiy zamin yaratgan [3]. Yana bir muhim manba International Renewable Energy Agency tashkilotining statistik ma'lumotlariga tayanilsa, qayta tiklanuvchi energiya bozorining o'sish sur'atlari, sarmoyalar hajmi va texnologik yangiliklar bo'yicha eng so'nggi tendentsiyalar yoritilgan [4].


Natija va muhokamalar

Xususan, energetik, transport va sanoat tarmoqlarida yashil investitsiyalar hisobiga ishlab chiqarish jarayonlari modernizatsiya qilinmoqda, resurslardan foydalanish samaradorligi ortmoqda va chiqindilar kamaymoqda[1]. Misol qilib, hozirgi jadal ravishda rivojlanayotgan Xiyotni olsak bo'ladi, bunda yashil texnologiyalarni ishlab chiqarish va joriy qilish orqali havoning ifloslanish darajasini sezilarli darajada pasaygan, 2022-yilning o'zidayoq 1,8 milliondan ortiq ish o'rinlari yaratilgan va aholining yashash darajasi ham ko'tarilgan. Germaniyada ham ekologik toza energiya manbalarini joriy etish bo'yicha ham yetakchi o'rinlarni birini egallagan.

Рейтинг самых загрязненных крупных городов в режиме реального времени

13:22 (Местное время)

Легенда AQI* США



Рейтинг	Крупный город, страна/регион	AQI* США	Подписчиков
1	 Ташкент, Узбекистан	268	201.1K подписчиков
2	 Карачи, Пакистан	221	94.4K подписчиков
3	 Лахор, Пакистан	214	506.3K подписчиков
4	 Дели, Индия	206	2.8M подписчиков
5	 Калькутта, Индия	202	1.4M подписчиков
6	 Мумбаи, Индия	193	1.5M подписчиков
7	 Дакка, Бангладеш	191	258.7K подписчиков

1-rasm Toshkentdagi havo ifloslanish darajasi¹

Manba: <https://uznews.uz/posts/79332> platformasidan olingan

Hozirda Toshkent shahrida yashash soni o‘sgani sari, qurilishlar, iqtisodiy o‘sishlar ham rivojlanmoqda, har qadamda yangidan yangi imorat va korxonalar shaharni to‘ldirib bormoqda. Bu holat nafaqat ekologik, balki shahar aholisining salomatligiga ham ta’ris ko‘rsatadi. Quyidagi Toshkent shahridagi havo ifloslanishi holatini aks ettiruvchi grafikni ko‘rishingiz mumkin. Bu grafikda Toshkent shahrining havosi ifloslanish va PM2.5 zarrachalari miqdori 173 mikrogramm/m³ ga yetib birinchi o‘rini egalamoqda, bu ko‘rsatkich Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan belgilangan meyordan tahminan 35 barobarga oshib ketgan Bunday zararli modalarning bu darajaga yetishiga avtomobillarning shaharda ko‘payishi ham juda katta sabab bo‘lmoqda. 2022-yilda Toshkent shahrida transport vositalaridan chiqadigan zararli gazlar miqdori 403 ming tonnani tashkil qilgan, keyinchalik 2023-yilga kelib esa bu ko‘rsatkich pasayish o‘rniga yana 48 foizga oshgan. Toshkentda iqtisodiy o‘sishni ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashtirish zarur. Aks holda, havo ifloslanishi sog‘liq, iqtisodiyot va atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazishda davom etadi. Yashil investitsiyalar, ekologik toza texnologiyalar va qat’iy nazorat choralari bu muammoni hal etishda muhim rol o‘ynaydi. Lekin O‘zbekiston yashil iqtisodiy o‘sish bo‘yicha ham ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. Respublikada 2023-yilda tushirilgan quyosh va shamol elektr stansiyalari nafaqat energiya ta’minotiga hissa qo‘shmoqda, balki ekologik bosimni kamaytirishda ham muhim ro‘l o‘ynayapti[3].

Xulosa

Global tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, energetika sohasida qayta tiklanuvchi manbalarni joriy etish orqali nafaqat tabiiy resurslardan foydalanish darajasi oshmoqda, balki atrof-muhitga salbiy ta’sir sezilarli kamaymoqda. Quyida Xalqaro Qayta Tiklanuvchi Energiya Agentligi (IRENA) tomonidan taqdim etilgan statistik ma’lumotlar bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi: 2023-yilda global miqyosda 473 gigavatt (GW) yangi qayta tiklanuvchi energiya quvvati o‘rnatilgan bo‘lib, bu yil davomida o‘rnatilgan umumiy elektr quvvatining 86 foizini tashkil etdi. Yil yakunida esa global qayta tiklanuvchi energiya quvvati 4 209 GWga yetgan[4]. Bu raqamlar dunyo mamlakatlarining yashil energiya sari jadal harakat qilayotganidan dalolat beradi. O‘zbekiston sharoitida ham mavjud salohiyatni to‘liq ishga solish, zamonaviy texnologiyalarni jalb etish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va mahalliy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash orqali yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan taraqqiyotga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Green Investment Opportunities: Scaling Up Private Sector Participation in Emerging Markets (2023)

<https://www.worldbank.org/en/news/feature/2023/06/05/green-investment-opportunities>

2. Green Transition Strategy 2021–2025 <https://www.ebrd.com/what-we-do/strategies-and-policies/green-transition-strategy.html>

3. PQ-186-son, 2023-yil 2-iyun – “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi to‘g‘risida” <https://lex.uz/docs/6454235>

4. International Renewable Energy Agency (IRENA). Renewable Capacity Statistics 2024 <https://www.irena.org/publications/2024/Mar/Renewable-Capacity-Statistics-2024>